# KLINIK LABORATOR DIAGNOSTIKADA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

## xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

## 18 aprel 2023 yil

## O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi

## www.ssv.uz

## Toshkent tibbiyot akademiyasi www.tma.uz

Created with Icecream PDF Editor.
Icecream PDF Editor PRO

| | |
|---|---|
| bog'liq kranial polinevropatiyalarning diagnostik xususiyatlari …… | **328** |
| **Muminov O.A., Kurbonova Z.Ch.** Covid-19 klinik kechishining o'ziga xos xususiyatlari …….. | **329** |
| **Muminov O.A., Kurbonova Z.Ch.** Covid-19 etiologiyasi va patogenetik mexanizmlari ……... | **331** |
| **Musayeva N.B., Islamova Z.S.** Hemostasiological changes in rheumatoid arthritis ……. | **332** |
| **Mustanov J.A., Rasulov SH.M.** Teri leyshmaniozini tashxislashda klinik va laborator tekshirishlarning ahamiyati ……... | **334** |
| **Nishonov A.A., Nuriddinova N.F.** Laborator diagnostikada it texnologiyalarni joriy qilinishi ..... | **336** |
| **Nishonov A.A., Nuriddinova N.F.** Implementation of innovative technologies in clinical laboratories ……... | **337** |
| **Otayeva G.A, Ibaydullayeva B.R., MaxmudovaA.Yu., Kasimova E.A., Salimjonova D.X.** O'pka kasalliklarining asoratlari kelib chiqishi va kasallik chaqiruvchi omillari …….. | **339** |
| **Po'latov M.Q, Rashidova N.S.** Migren bilan kasallangan bemorlarda bosh miya o'zgarishlarini magnit rezonans tomografiya tekshiruvi orqali baxolash ……... | **341** |
| **Qaraxonova S.A, Murodov G'.X, Ernaeva G.X.** Xavotirli-fobik sindromda psixokorreksiya …….. | **342** |
| **Qaraxonova S.A, Ernaeva G.X.** Taekvondo sportchilarida musobaqadan oldingi psixodiagnostik tekshiruvlarning axamiyati ..... | **342** |
| **Qurbanova G.Ch., Babadjanova Sh.A.** Diffuz toksik buqoq klinik simptomlari ..... | **344** |
| **Qurbanova G.Ch., Babadjanova Sh.A.** Diffuz toksik buqoq klinik xususiyatlari ……. | **346** |
| **Qurbanova G.Ch., Babadjanova Sh.A.** Diffuz toksik buqoqda giperkoagulyasiyaning patogenetik aspektlari …… | **348** |
| **Qurbonova S.Y., Murodova I.A., Yo'ldasheva S.M.** St.Aureus patogen shtammlaridan zardob olish tehnologiyasi ……. | **350** |
| **Qutlimuratov I.Sh.** Immunoglobulin e klinik ahamiyati …….. | **350** |
| **Rahimova Sh.M., Saidvaliyev F.S.** Birlamchi bosh og'riqlaridagi abuzus bosh og'rig'ining klinik-nevrologik xususiyatlari ……... | **352** |
| **Rakhimbaeva G.S., Mallaev F.S.** The role of atherocalcinosis in the development of atherothrombotic subtype of ischemic stroke. Management of medical treatment tactics …… | **353** |


Icecream PDF Editor.

history. At the same time, according to the results of the study, the antithrombin potential of the blood increases with the progression of the disease, which can be considered as a consequence of the anti-inflammatory effect of prolonged immunosuppressive therapy and a decrease in the exudative component in the evolution of the disease. The increase in antithrombin potential, according to our data, does not include the activation of antithrombin III, which requires a study to clarify the involvement of other natural anticoagulants in the formation of increased antithrombin activity in the blood of RA patients.

**References.**

1. Shoikhet Ya.N., Momot A.P. On the role and relationship of hemostatic and inflammatory reactions in the formation of foci of purulent destruction of organs and tissues. Probl. Wedge. Honey. 2008. (4). 102–117.

2. Kitamoto Y., Nakamura E., Kudo S. Et al. Thrombin in synovial fluid as a marker of synovial inflammation: a definite measurement by ELISA and correlation with VEGF // Clin. Chim. Acta. 2008. 398. 159–160.

3. Rheumatology: national guidelines / Ed. E.L. Nasonov, V.A. Nasonov. M.: GOETAR-Media, 2008. 720 p.

4. Hundelshausen Ph., Weber C. Platelets as immune cells // Circ. Res. 2007. 100. 27–40.

## TERI LEYSHMANIOZINI TASHXISLASHDA KLINIK VA LABORATOR TEKSHIRISHLARNING AHAMIYATI

**Mustanov J.A., Rasulov SH.M.**

***Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali***

Dunyoda teri leyshmaniozi (TL) bir qator davlatlar uchun jiddiy ijtimoiy – iqtisodiy muammolardan biridir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 600000 dan 1 mln. gacha teri leyshmaniozi bilan kasallangan bemorlar ro‘yxatga olinadi. TL kasalligida patologik jarayonning uzoq vaqt davom etishi, etiotrop davo o‘tkazishdagi muammolar mavjudligi TL kechishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yondosh kasalliklarni o‘z vaqtida tashxislash va davolash muhimligini ko‘rsatadi.

Leyshmanioz juda keng tarqalgan parazitar kasallik bo‘lib, odamlarda va hayvonlarda uchraydi, transmissiv xarakterga ega.

Kasallik aksariyat iqlimi issiq mamlakatlarda uchraydi. Jumladan, O‘zbekistonning Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Jizzax viloyatining ayrim hududlarida, bundan tashqari Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham kasallikning endemik uchoqlari bor.

Butunjahon sog‘likni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra 350 million odam bu kasallik bilan xastalangan. Har yili 14 million odam kasallanadi va 2 millionga yaqin yangi kasallik qayd qilinmoqda. Bundan tashqari har yili visseral leyshmanioz bilan 50 mingta o‘lim holatlari qayd qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda 755 ta bemor leyshmanioz kasalligi bilan kasallangan. Shundan 3 foizigina faol aniqlangan. O‘zbekistonda bu kasallikning 3 xil turi: visseral zoonoz, teri antroponozi va zoonoz leyshmaniozi tarqalgan.

Icecream PDF Editor.

Teri leyshmaniozining klinik belgilari noxususiy, davolash esa qimmatbaho va murakkabligi, ayrim hollarda yaqqol intoksikatsiya belgilarini chaqirganligi tufayli tashxis laborator tasdiqlanishi kerak bo‘ladi.

Kasallikning og‘irlik darajasini aniqlash: yaralarni joylashishi, kattaligi va soni, ikkilamchi patogen mikroflorani jarayonga qo‘shilishi, spetsifik jarayonga regionar limfatik tomirlarni va tugunlarni jalb qilinishi.

Tashxisot mezonlari. Klinik va epidemiologik ma’lumotlar va qo‘zg‘atuvchini teri qatlamlarida joylashganligi bois, zoonoz teri leyshmanioz tashxisotida yara atrofida joylashgan yallig‘langan lo‘la burtmasi to‘qimalaridan qirindilari tekshirish uchun material olinadi. Qirindidan Romanovskiy – Gimza uslubi bo‘yicha tekshiriladigan surtma tayyorlanadi.

Zoonoz teri leyshmaniozi (ZTL) bemorlarda asosiy shikoyatlar quyidagilar bo‘ladi: isitma ko‘tarilishi – 6,8%, umumiy holsizlik – 43,8%, yara atrofida og‘riq bo‘lishi – 49%, yara atrofida shish – 33,4%, yara atrofida giperesteziya – 26,4%, asosiy yara atrofida qo‘shimcha tugunlarni paydo bo‘lishi – 25%.

ZTL bemorlarning 18,6% limfadenit asorati kuzatildi. Limfadenit aniqlangan bemorlarda yara joylashgan joyga yaqin sohalarda, ya’ni taqim osti chuqurchasi, tirsak chuqurchasidagi, chov va bo‘yin sohasidagi limfa tugunlari kattalashganligi aniqlandi. Bemorlarda limfa tugunlari kattaligi mosh va loviya kattaligidek bo‘lib, atrof to‘qima bir oz shishgan, paypaslaganda shish sohasi og‘riqli, limfa tuguni ustidagi teri rangi o‘zgarmagan. Limfangoit asorati kuzatilgan 19,8% bemorlarda quyidagi belgilar aniqlandi: yara atrofidagi limfa tomiri bo‘ylab 4 tadan 6 tagacha infiltratsiyalangan limfa tugunlari aniqlandi, limfa tomiri bo‘ylab giperemiya kuzatiladi, infiltrat va limfa tomiri bo‘ylab og‘riq aniqlandi.

Kasallik tez rivojlanib, 3 – kunga kelib tugunlarning o‘lchami o‘rtacha 10±0,26 mmga etgan. SHu bilan birga yara atrofidagi to‘qimalarda shish rivojlangan. O‘rtacha 12 kun o‘tgach yallig‘langan tugunda markaziy nekroz boshlangan. YAra o‘lchami o‘rtacha 4,1±0,2 mm bo‘lib chegarasi notekis, atrofida esa “xamirsimon” yallig‘lanish o‘chog‘i bo‘lgan. Keyinchalik bu sohalar ham nekrozlanib, yara sekin – asta kattalashib borgan. YAra tubi odatda silliq bo‘lmay, ba’zi bemorlarda seroz yiringli ajralma ajralgan.

ZTL yarali shakli asoratsiz kechayotgan bemorlarda yaralar soni quyidagicha bo‘lgan: 6 nafar bemorlarda – 1 ta yara, 4 nafar bemorlarda – 2 ta, 5 nafar bemorlarda – 3 ta, 10 nafar bemorlarda – 4 ta, 17 nafar bemorlarda – 5 ta, 1 nafar bemorda – 6 ta bo‘lgan. YAra odatda og‘riqsiz bo‘lib, asoratlar qo‘shilmagan bemorlarda hech qanday ajralmalar ajralmagan.

Bemorlarda shikoyatlar asosan mahalliy ahamiyat kasb etdi, ya’ni yara atrofida og‘riq va shish, giperesteziya va qo‘shimcha tugunlar paydo bo‘lishi bilan namoyon bo‘ldi. Zoonoz teri leyshmaniozli 1 ta bemorga o‘rtacha 3,8±1,2 ta yara to‘g‘ri kelib, bemorlarda limfangoit va limfadenit kabi asoratlar kuzatildi.

**Adabiyotlar:**

1. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2022. 140 b.

Icecream PDF Editor.